

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo‘lyozma huquqida
UDK 339.54**

TURAYEV NURBEK MUXAMMADOVICH

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI TASHQI SAVDO FAOLIYATINI
TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: i.f.d prof. A.S.Kucharov

Toshkent 2025

MUNDARIJA

Kirish	3
I-BOB.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI TASHQI SAVDO FAOLIYATINI TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	12
1.1.	Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatining ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyati.....	12
1.2.	Globalashuv sharoitida mamlakat tashqi savdo faoliyatini tartibga solish dastaklarini turkumlanishi.....	26
1.3.	Tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyatini tartibga solishning jahon tajribasi.....	39
	I-bob bo'yicha xulosalar.....	53
II-BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI O'RNI VA TAHLILI.....	57
2.1.	Mamlakat tashqi savdo faoliyatida tadbirkorlik subyektlari salohiyatini kengaytirishning institutsional asoslarini shakllari.....	57
2.2.	Tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyatini tartibga solish mexanizmlarini tahlili.....	71
2.3.	Tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyatini korxonada miqiyosida tartibga solish tahlili.....	98
	II-bob bo'yicha xulosalar.....	109
III-BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI TASHQI SAVDO FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	114
3.1.	Iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyatini davlat tomonidan qo'llab quvvatlash.....	114
3.2.	Tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyatini innovatsion rivojlanishini jaldallashtirish.....	124
3.3.	Tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda bojxona (protseduralarini) tadbirlarini soddalashtirish.....	134
	III-bob bo'yicha xulosalar.....	147
	Xulosa va takliflar.....	149
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	152

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo erkinlashuvi jarayonlarining kuchayishi sharoitida sohani bozor qonunlari hamda tashqi savdoga oid milliy qonunchilik orqali tartibga solishning ahamiyati ortib bormoqda. Jahon xo‘jaligida tashqi savdo hajmi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarga asosan “Xalqaro valyuta fondi hisobotiga ko‘ra, tovarlar va xizmatlar savdosi jami hajmi o‘zidan oldingi yilga nisbatan 2021-yilda 10,9% ga, 2022-yilda 5,1% ga o‘sgan, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 0,9% ni tashkil etib, 2024-yilda esa 3,5%ga o‘sishi prognoz qilinmoqda. 2023-yilda jahon yalpi ichki mahsuloti 105 trillion AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib shundan 55-60% tashqi savdo aylanmasi ulushiga to‘g‘ri keladi”¹. Bundan ko‘rinadiki, bugungi kunda xalqaro miqyosda tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va tartibga solish iqtisodchi olimlar, amaliyotchilar, soha mutaxassislari, shuningdek, tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarning diqqat e‘tiborini tortib kelmoqda.

Jahonda global iqtisodiy integratsiyaning kuchayib borishi sharoitida tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solish borasida ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda murakkab geosiyosiy muhit, o‘ziga xos geografik joylashuv hamda logistika infratuzilmasi kabi qator omillarning ta‘sirini hisobga olish, tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini optimallashtirish, tartibga solish mexanizmlarining samaradorligini oshirish, tovarlar va xizmatlar eksportini rag‘batlashtirish orqali davlatning to‘lov balansi ijobiy saldosi ga erishish, qat‘iy valyuta zaxirasini shakllantirish, tadbirkorlik subyektlari tomonidan yuqori darajadagi qo‘shilgan qiymatni yaratish orqali ishsizlik va inflyatsiyaning salbiy ta‘sirini kamaytirish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O‘zbekistonda tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator islohotlar va tashabbuslar

¹ Жаҳон банки ҳисоботи 2023 йил. - Манба: <https://data.worldbank.org/>

amalga oshirilmoqda. “Tashqi savdoni yengillashtirish va tartibga solishda “Yagona darcha” tizimi imkoniyatlaridan foydalanish, maxsus elektron platformalar orqali tadbirkorlarga import, eksport va tranzit tartib-taomillari bo‘yicha qadamba-qadam yo‘riqnoma taqdim etish, Jahon savdo tashkiloti (JST) ga a‘zo bo‘lish jarayonini tezlashtirish, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (YeAEU) bilan hamkorlikni kengaytirish, biznes muhitini yaxshilash, tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish va ularga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash maqsadida “Yagona davlat nazorati” tizimi joriy etish asosida tekshiruvlarning shaffofligini ta‘minlash va biznesni himoya qilish shular jumlasidandir. Shuningdek, tashqi savdo faoliyatidagi tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash borasida 2023-2026-yillar davomida kichik biznesni rivojlantirish uchun ajratilgan 1,7 milliard dollar mablag‘lar tadbirkorlarga kreditlar, subsidiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlar orqali yordam berish”², “Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeBRR) tomonidan O‘zbekistonda ayollar tomonidan boshqariladigan va egalik qilinadigan bizneslarni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan 6 million dollar hajmidagi kreditlar”³ hamda boshqa chora-tadbirlar mamlakatda tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan bo‘lib, biznes muhitini yaxshilash va iqtisodiy o‘rni ta‘minlashga xizmat qiladi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatini tartibga solish va qo‘llab-quvvatlash muammolariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini namoyon etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi PQ-109-son «O‘zbekiston - 2030» strategiyasida belgilangan asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 24-maydagi PQ-193-son “Tadbirkorlik subyektlariga subsidiyalar, imtiyozlar va preferensiyalarni taqdim etish tartiblarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2018-yil 29-iyundagi PQ-3818-son “O‘zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-

² <https://daryo.uz/en/2023/11/13/uzbekistan-allocates-17bn-to-boost-small-businesses-from-2023-2026>

³ <https://www.ebrd.com/news/2024/ebird-supports-womens-entrepreneurship-in-uzbekistan.html>

tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-maydagi 283-son "O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustivor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. "Tashqi savdoni tartibga solish borasidagi ilk nazariyalar xorij olimlaridan T.Man, U.Petti, J.Styuart, F.List, erkin savdo siyosati tarafdorlari D.Yum, Ibn Xaldun, A.Smit, D.Rikardo tomonidan o'rganilgan bo'lsa, keyinchalik xorij olimlaridan E.Xeksher, B.Olin, V.Leontev, J.B.Kolbert, Ye.B.Baverk, K.Menger, F.Vizer, Y.Shumpeter, I.Xayek, J.S.Mil, A.Marshal, J.M.Keyns, zamonaviy iqtisodchi olimlardan G.Bekker, M.Korden, M.Porter, P.Krugman, A.Kireev, X.J.Chxan, R.M.Nureev, G.S.Vechkanov, G.R.Vechkanova va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan"⁴.

⁴ Tomas Mun "England's Treasure by Forraign Trade" (1630), "A Discourse of Trade from England unto the East Indies" (1621), Уильям Петти "A Treatise of Taxes and Contributions" (1662), Политика меркантилизма (1656), "The Political Anatomy of Ireland" (1672) "An Inquiry into the Principles of Political Economy" (1767), "A Dissertation upon the Doctrine of Money" (1758) "Национальная система политической экономии" (1841), "Манифест немецкой национальной промышленности" (1833), "**Трактат о человеческой природе**" (**A Treatise of Human Nature**) (1739-1740), Ибн Халдун "Мукаддима" (Al-Muqaddimah)(1388), Адам Смит "Исследование о природе и причинах богатства народов"1776, "**О началах политической экономии и налогового обложения**" (1817), Эли Хекшер"**Межрегиональная и международная торговля**" (1933), "**Меркантилизм**" (1931) "Теория и политика международной торговли", "**Будущее мирового экономического роста**" (1977), "Капитал и процент" (1888), "Основания политической экономии"1871, "Происхождение и основное положение экономической ценности" (1871), Й.Шумпетер "Теория экономического развития"(1911), Й. Шумпетер "История экономического анализа" (1954), "Денежная теория и экономические циклы" (1933), "**Принципы экономической науки**" (**Principles of Economics**) (1890), А.Маршал "**Промышленность и торговля**" (**Industry and Trade**) (1919), Дж.М.Кейнс "**Общая теория занятости, процента и денег**" (**The General Theory of Employment, Interest and Money**) (1936), Гери Беккер "**Экономический подход к человеческому поведению**" (**The Economic Approach to Human Behavior**) (1976), Макс Корден "**Теория торговой политики**" (**Trade Policy and Economic Welfare**) (1974), Майкл Портер "**Конкурентное преимущество: как достичь высокого результата и обеспечить его устойчивость**" (**Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance**) (1985), Пол Кругман International economics. (2019) Алексей Киреев "Международная микроэкономика" (2014), Р.М. Нуреев "Микроэкономика: теория и российская практика" (2008), «История экономических учений», Г.С. Вечканов, Г.Р. Вечканова "Микроэкономика", "Макроэкономика", (2000).

“Mazkur muammoning ilmiy tadqiqi O‘zbekistonlik olimlardan A.Vahobov, N.Q.Yo‘ldoshev, N.M.Mahmudov, N.H.Hakimov, A.Sh.Bekmurodov, E.F.Gadoev, U.V.G‘afurov, A.S.Kucharov, R.X.Karlibaeva, Sh.J.Ergashxodjaeva, M.A.Ikramov, N.X.Jumaev, Ya.K.Karrieva, I.A.Ahmedov, M.S.Qosimova, D.S.Qosimova, B.T.Salimov, I.Hotamov, B.O.Tursunov, Z.A.Hakimov, M.Yusupov, O.Djuraboev, D.Suyunov, N.S.Ismailova, N.Sirojiddinov, A.Aliev, A.S.Yusupov, F.E.Xo‘jaev, B.S.Umarov, F.G‘.Sharipov, T.N.Pardaev, A.A.Shadmankulov, A.Sagatov, Z.X.Makkamov, S.S.Gulyamov, U.Yuldasheva, A.Samadov, A.A.Xoshimov, Z.A.Ashurov, B.N.Urinov, Q.Isaev, A.Zikriyoev, Z.Sanginov va boshqa olimlarning ilmiy nashrlarida o‘z aksini topgan”⁵.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OG-A2-56-sonli “O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlashning konseptual asoslarini ta’minlash” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solish bo‘yicha nazariy xulosalarni umumlashtirish;

tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish;

tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda tarif va notarif usullarini qo‘llashning uslubiy jihatlarini asoslash;

⁵ A. Вахъобов “Халқаро иқтисодиёт” 2016й, Э.Ф. Гадоев “Экспорт импорт операциялари” Тошкент 2009, Қ, Исаев. Халқаро иқтисодиёт 2020, А.С. Кучаров “Божхона иши асослари”2019й. Т.Н. Пардаев, А.А.Шадмакулов, З.Х. Маккамов “Божхона тўловлари” 2021й., А. Зикриеев. Хорижий мамлакатлар иқтиодиёти 2019й. Н.Исмаилова, У. Дадабоев “Ўзбекистоннинг жаҳон савдо ташкилотига аъзо бўлишининг ўзига хос хусусиятлари” (2023), Д.С. Қосимова “Тадбиркорлик ва инновациялар” (2024)

tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyati holatini, uni tartibga solish mexanizmini tahlil qilish;

tashqi savdo operatsiyalarida vujudga kelgan xarajatlarni tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi ahamiyatini yoritib berish;

tadbirkorlik subyektlarida tashqi savdo faoliyatini samarali tashkil etish tizimini ishlab chiqish;

tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda davlat tomonidan qo'llab quvvatlash orqali ularning innovatsion rivojlanishini jadallashtirish;

tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda bojxona tartibotlarini soddalashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekistondagi tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishni takomillashtirishda vujudga kelgan iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tarixiy va tadrijiy (evolyusion) rivojlanishni o'rganish, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, analiz va sintez, pozitiv va normativ usullari, iqtisodiyotni matematik, statistik hamda ekonometrik modellashtirish, sabab va aloqadorlik modellarini yaratish, prognozlash, iqtisodiy analogiya kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "tashqi savdo faoliyatini tartibga solish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni davlat tomonidan eksport va import jarayonlarini tartibga solish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilish, xalqaro savdo faoliyati ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilashda tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olinadigan iqtisodiy nafni maksimallashtirishni ta'minlash jihatidan takomillashtirilgan;

tashqi savdoni iqtisodiy usullar bilan tartibga solish borasida muayyan tovar (xizmat) yoki tovarlar (xizmatlar) guruhi yuzasidan bozor talab va taklifidan kelib

chiqqan holda advalor boj stavkasini o'rnatishda import hajmini kamaytirish yoki ko'paytirish orqali boj tarifi optimal stavkasini belgilash taklifi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlarining transport tashuvlari va boshqa logistika xarajatlarini maqsadli kompensatsiyalash, subsidiyalar joriy etish, milliy brend ostida ishlab chiqarilgan tovarlarning tashqi bozorlardagi o'rnini topish, tovarlarni rasmiylashtirish tartibini yanada soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlarining tranzaksion xarajatlarini kamaytirish orqali tashqi savdodagi faoliyat faolligini ta'minlashda samaradorligini oshirish asoslangan;

O'zbekiston Respublikasining uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi holati va tashqi savdo aylanmasi o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan ekonometrik model asosida tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatining 2034-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

bojxona rasmiylashtiruvini raqamlashtirish jarayonlariga oid amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

bojxona yuk deklaratsiyasi elektron ro'yxatga olingandan keyin unga avtomatik tarzda bojxona ko'rigini amalga oshirish uchun bojxona inspektorini birlashtirish hamda bojxona inspektori bilan tadbirkorlik subyekti o'rtasida rasmiy xabar ayriboshlash tizimini joriy etish orqali rasmiylashtiruv jarayonlariga inson omili ta'sirini kamaytirish taklifi asoslangan;

korxonada darajasida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi tadbirkorlik subyektlarini boshqarishda strategik yondashuvning ahamiyati asoslangan;

tashqi iqtisodiy faoliyat tadbirkorlik tuzilmalarining iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish strategiyasini shakllantirish metodikasi ishlab chiqilib, ko'zda tutilmagan xarajatlar vujudga kelishining oldi olingan;

tovarlar eksportiga vositachilar orqali yondashuv, ya'ni vositachilar orqali sotishga ruxsat berish borasida aniq takliflar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ularni olishda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi,

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat bojxona qo‘mitasi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi huzuridagi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlaridan foydalanilgani, shuningdek tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarining amaldagi faoliyatini kuzatuvlari, ma’lumotlari orqali amalga oshirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy xulosa va takliflardan tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishni takomillashtirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy apparatini boyitish hamda uslubiy asoslarini kengaytirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlarini turkumlagan holda o‘rganish, ular faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish hamda tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish, zamonaviy iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari asosida shakllantirilgan amaliy takliflar orqali milliy iqtisodiyot, xalqaro tashkilotlar, transmilliy kompaniyalar va korxonalarining faoliyat samaradorligini oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini tartibga solishni takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “tashqi savdo faoliyatini tartibga solish” tushunchasining iqtisodiy mazmunini davlat tomonidan eksport va import jarayonlarini tartibga solish, iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash, milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilish, xalqaro savdo faoliyati ishtirokchilarning huquq va majburiyatlarini belgilashda tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olinadigan iqtisodiy nafni maksimallashtirishni ta‘minlash jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy ma’lumotlardan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan, “Tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat tomonidan tartibga solish” nomli o‘quv qo‘llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta

maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 04-oktabrdagi 892-sonli buyrug'i 892-049 sonli nashr ruxsatnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatidan olinadigan iqtisodiy nafni maksimallashtirishni ta'minlash jihatidan takomillashtirilgan "tashqi savdo faoliyatini tartibga solish" tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

tashqi savdoni iqtisodiy usullar bilan tartibga solish borasida muayyan tovar yoki tovarlar guruhi yuzasidan bozor talab va taklifidan kelib chiqqan holda advalor boj stavkasini o'rnatishda import hajmini kamaytirish yoki ko'paytirish orqali boj tarifi optimal stavkasini belgilash taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasining 9/02-25-10445-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tovarlar pozitsiyalari tahlilida tadbirkorlik subyektlari foydasiga davlat tomonidan ahamiyatli mablag'lar tejab berilishi va tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatini rag'batlantirish imkoni yaratilgan;

tadbirkorlik subyektlarining transport tashuvlari va boshqa logistika xarajatlarini maqsadli kompensatsiyalash, subsidiyalar joriy etish, milliy brend ostida ishlab chiqarilgan tovarlarning tashqi bozorlardagi o'rnini topish, tovarlarni rasmiylashtirish tartibini yanada soddalashtirish, tadbirkorlik subyektlarining tranzaksion xarajatlarini kamaytirish orqali tashqi savdodagi faoliyat faolligini ta'minlashda samaradorligini oshirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasining 9/02-25-10445-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ishlab chiqarish va savdo korxonalari tashqi savdo faoliyatida xarajatlarni sezilarli kamaytirishga erishish, eksport salohiyatini oshirish borasida yangi yo'nalishlarni ochish hamda rasmiylashtirish davri qisqartirilishi natijasida korxonalar umumiqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoni yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasining uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi holati va tashqi savdo aylanmasi o'rtasidagi bog'liqlikka asoslangan ekonometrik model

asosida tadbirkorlik subyektlari tashqi savdo faoliyatining 2034 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan foydalanish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo sanoat palatasining 9/02-25-10445-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyatida yuzaga kelgan muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzdorliklari ustidan shaffof nazoratni raqamlashtirish orqali amalga oshirish, tashqi savdo operatsiyalarini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirishi bilan bir qatorda tadbirkorlar uchun tashqi savdo shartnomalari ichki nazoratini amalga oshirish imkoni berilishi, tashqi savdo operatsiyalarining turlari ko'payib borishi bilan ularni tartibga solishda yagona davlat raqamlashgan platformasini takomillashtirib borish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 8 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 156 betni tashkil etgan.